

## **Public Participation in the Adoption of Normative Legal Acts**

Institute for analysis and regulatory impact assessment  
of legislation under the Ministry of Justice Office administrator

Uzaqov Jamolxon Jahongirxon o'g'li

### **Annotation**

This article examines the importance of public participation in the development and adoption of normative legal acts. It analyzes the legal foundations of citizen involvement in lawmaking processes, including constitutional provisions and requirements for public discussion of draft regulations. The study highlights the role of public opinion in improving the quality, effectiveness, and social relevance of legal documents. Particular attention is given to mechanisms such as public consultations and regulatory impact assessment, which ensure transparency and accountability in decision-making. The article also emphasizes that active citizen participation contributes to preventing practical problems, reducing unnecessary costs, and strengthening trust between the state and society. It concludes that public involvement is both a right and a civic duty, essential for building a fair and effective legal system.

### **Keywords**

Public participation, normative legal acts, lawmaking process, public discussion, regulatory impact assessment, transparency, accountability, civic engagement, public control, legal system.

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokining ahamiyati tahlil qilinadi. Unda fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishining huquqiy asoslari, xususan konstitutsiyaviy normalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik

muhokamasidan o'tkazish tartibi yoritilgan. Shuningdek, jamoatchilik fikrining normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirish, ularning hayotiyligi va samaradorligini ta'minlashdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Maqolada jamoatchilik muhokamasi va tartibga solish ta'sirini baholash mexanizmlarining shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashdagi roli ham tahlil qilingan. Fuqarolarning faol ishtiroki orqali kelajakdagi muammolarni oldini olish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda davlat va jamiyat o'rtasida ishonchni mustahkamlash mumkinligi asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida jamoatchilik ishtiroki nafaqat huquq, balki fuqarolik burchi ekani ta'kidlangan.

### **Kalit so'zlar**

Jamoatchilik ishtiroki, normativ-huquqiy hujjatlar, norma ijodkorligi, jamoatchilik muhokamasi, tartibga solish ta'sirini baholash, shaffoflik, hisobdorlik, fuqarolik faolligi, jamoatchilik nazorati, huquqiy tizim.

Mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki qanchalik muhim? Jamoatchilik fikri yangi qabul qilinayotgan normativ huquqiy-hujjatlarga qanchalik ta'sir qiladi? Nega har bir fuqaro normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasida faol ishtirok etishi lozim? Ushbu savollar bugungi kunda har bir shaxs uchun uchun dolzarb ahamiyatga ega, chunki fuqarolarning kundalik hayotida amal qiladigan qoidalar aynan fuqarolarning ishtiroki va munosabati asosida shakllanadi.

### **Jarayonning huquqiy poydevori**

O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslari bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 36-moddasida fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali

ishtirok etish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Bu esa, o'z nabatida har bir fuqaroga norma ijodkorligi jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari (<https://regulation.adliya.uz/>) saytida majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi shart. Bu tartib ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar xalqning xohish-irodasini o'zining normasida aks ettirishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, loyiha kamida o'n besh kunlik muddat ichida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi lozim, biroq loyihani ishlab chiqqan idora sohaning murakkabligiga qarab muhokama vaqtini uzaytirishi mumkin.

### **TSTB va jamoatchilik nazoratining ahamiyati**

Normativ-huquqiy hujjatlarning samaradorligi va ta'sirchanligini aniqlashda Qonunchilik hujjatlari tartibga solish ta'sirini baholash jarayonidan o'tkazilayotganida ham mazkur normativ-huquqiy hujjatlar jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi mumkin. Tartibga solish ta'sirini baholash jarayonida jamoatchilik ishtiroki bu shunchaki rasmiyatchilik emas, balki har bir fuqaroning o'z kelajagi va farovonligi uchun mas'uliyatni his qilishi demakdir. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasida ishtirok etish orqali biz o'z hayotimizga daxldor bo'lgan qarorlarning qanchalik adolatli va hayotiy bo'lishini ta'minlaymiz. Hayotdagi mavjud holatni va kundalik muammolarni oddiy odamlardan, tadbirkorlardan va soha mutaxassislaridan ko'ra yaxshiroq biladigan hech kim yo'q. Muhokama jarayonida bildirilgan fikr-mulohazalar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklarning oldini olishga va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

### **Ishtirok etish — ham huquq, ham burch**

Jamoatchilik ishtiroki qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning quruq qog'ozda qolib ketmasligini, balki xalqqa xizmat qiladigan vositaga aylanishini

kafolatlaydi. Bu jarayonda biz davlat bilan teng huquqli sherik sifatida muloqotga kirishamiz va o'z huquqlarimizni himoya qilishning eng samarali yo'lidan foydalanamiz. Jamoatchilik nazorati va ishtiroki bor joyda adolat mezonlari doimo ustuvor bo'ladi. Har bir taklif davlat boshqaruvi sifatini oshirishga va jamiyatda o'zaro ishonch muhitini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Shu sababli ham muhokamalarda qatnashish har birimiz uchun ham huquq, ham burchdir.

Natijada, jamoatchilik ishtiroki bilan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xalqimizning baxtli va xotirjam yashashi uchun eng mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolarning ijtimoiy faolligi — adolatli qonunlar va farovon jamiyat garovidir.

## **FOYDALANILGAN MANBALAR**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar.**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
- 1.2. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunni.

### **II. Elektron manbalar.**

- 3.1. <https://lex.uz>
- 3.2. <https://regulation.adliya.uz/>